

**YANGI O`ZBEKISTONDA GLABALLASHUV JARAYONIDA
GENDER TENGLIK MASALALARI**

Aminova Gulnoza Xakimovna

Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy Universiteti doktoranti

Oribjonova Sevara Zuhridin qizi

Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy Universiteti 3-kurs talabasi

***Anotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi glaballashuv jarayonida eng dolzarb masalalardan biri bo'lgan gender tenglik munosabatlari va ayollar huquqiy madaniyati muommolarining nazariy va amaliy jihatlarini taxlil etiladi.*

***Kalit so'zlar:** Glaballashuv, gender tenglik, munosabatlar, ayollar huquqiy madaniyati, nazariy va amaliy jihatlar.*

***Аннотаций:** В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты проблемы гендерного равенства и женской правовой культуры, которая является одной из наиболее актуальных проблем в современном процессе глобализации.*

***Ключевые слова:** глобализация, проблемы, гендерное равенство, отношения, женская правовая культура, теоретические и практические аспекты.*

***Annotation:** This article analyzes the theoretical and practical aspects of the problems of gender equality and women's legal culture, which are one of the most pressing issues in the current globalization process .*

***Key words:** Glaballization, issues, gender equality, relation, women's legal culture, theoretical, and practical aspects.*

Kirish: Insoniyat yaralibdiki, erkak va ayollar o'rtasidagi munosabat, jamiyatda, oilada ularning roli, gender tenglik va gender adolat muammolariga e'tibor qaratilib kelinadi. Bugungi kunga kelib ijtimoiy hayotning asosiy jabhalarida gender tenglikni ta'minlash butun jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qilishi o'z

isbotini topgan. Mazkur dissertatsiya yurtimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, tizimli chora-tadbirlarning bir qismi bo'lib, unda gender tengligini ta'minlash sohasidagi muammolarni ilmiy jihatdan o'rganish va ularga yechim sifatida ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish, aholi o'rtasida gender qadriyatlarini targ'ib qilish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda gender tenglik tamoyilini jamiyatga singdirish bilan bog'liq amalga oshirilayotgan islohotlar diqqatga sazovordir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-yubiley sessiyasida o'zbek tilida so'zlagan nutqida O'zbekistonni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatib, gender masalasiga alohida to'xtalib o'tdi. Jumladan, "Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchaymoqda. Yangi parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi", – deb mamlakatimizda xotin-qizlar siyosati bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ta'kidlab o'tdi. Haqiqatan ham, bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning o'z imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlarni ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

O'zbekiston istiqbol tufayli bozor munosabatlariga asoslangan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishga intilmoqda.

Huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri aholining yuksak huquqiy madaniyati hisoblanadi. Mamlakatimizning endigi taraqqiyoti jamiyat a'zolarining huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatining yuksaltirishni dolzarb vazifa qilib qo'yar ekan, shu o'rinda ayollarning huquqiy madaniyatini shakillantirish muhim ahamiyat kasb etadi, zero ular aholining 51/ tashkil etadi. Tarixga nazat tashlaydigan bo'lsak ayollar ming yillar davomida farzand ko'rib, ularni parvarishlab-tarbiyalash, oila ho'jaligini yuritish bilan cheklanganligi malum. Bugungi kunda esa hayot suratlarning tezlashishi, glaballashuv jarayoninig intergratsiyalashuv va

unifikatsiyalashuvi kuchayishi ayollarni manashunday qarashlardan ozod qiluvchi gender tenglik tushunchasi keng tarqalmoqda. Gender tenglik bu- anig'rog'i erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglikdir. Bu oiladagi va jamiyatda erkak va ayollar o'rtasidagi teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlardir. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, gender tenglik-bu patriarxal tizimidan keyingi ijtimoiy munosabatlarning keyingi bosqichi. Gender tenglik tamoyili insoning shaxs sifatida paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganish va yo'q qilish, shuningdek hayotning barcha sohalarida erkak va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iboratdir. XXI asrda ayollarning mana shunday qarashlaridan ozod qiluvchi, oiladagi onalik, rafiqalik masuliyatidan voz kechmagan holatda jamiyatda erkaklar bilan teng mehnat qilishi, mehnatiga yarasha haq olishi, saylash va saylanish kabi huquqlariga ega bo'lishi imkoniyatlarini yaratadi. Ayollarning bunday huquqlarga ega bo'lishi BMT da ishlab chiqilgan xalqaro huquq – “inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”(1948)hamda “Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakillariga barham berish to'g'risidagi” konvensiya (1979) kafolatladi. Bu hujjatlar hotin qizlarga nisbatan har qanday cheklashlarni tugatib, ularning oilaviy holatidan qat'iy nazar, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida: siyosiy, iqtisodiy, madaniyati va fuqarolikda xotin-qizlarning teng huquqlarini ta'minlashga chaqiradi. ¹

Hususan xotin – qizlarning axvolini yaxshilash, ularning erkinligi, huquqi, manfaatlari va sog'lig'ini muxofaza qilish mamlakat siyosatining ustuvor yo'nalishlari qatoridan joy olgan. “Zero, ummumilliy siyosatning ma'nosi – Xotin – qizlarning ijtimoiy jihatdan qo'llab – quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati umumjamiyat ishiga aylantirish demakdir”²

Ushbu mavzuning dolzarbligi yana quyidagilar bilan izohlanadi birinchidan: gender tenglik g'oyasiga ko'ra dunyoda ayol muammosi – dunyo muammosi, inson huquqi - ayol huquqi deb etirof etilayotgan bir davirda gender tenglik munosabatlarning ayollar huquqiy madaniyatiga ta'sirini tadbiq etish extiyoji

¹ “Xotin qizlar huquqlarini kamsitilishining barcha shakillariga barham berish to'g'risidagi konvensiya.”

T :BMT ning O'zbekistondagi vakolatxonasi .1998.1-2 betlar.

² Inomova S.T. “ Ezoqli ayol iqboli” kitobi T: 2005 8- bet.

mavjud; ikkinchidan, aholini turli qatlamlarida, ularning o'ziga xos qatlamlarida, ularning o'ziga xos hussusiyatlarini inobatga olgan holda huquqiy ongni shakllantirish, huquqiy madaniyatni takomillashtirish ayniqsa ayollarni yuksak huquqiy madaniyatli qilib tarbiyalash davrimizning dolzarb masalalaridandir; uchinchidan, jamiyatimizda xotin- qizlarning aksariyati ko'pgina obyektiv sabablarga ko'ra o'z huquqi va majburiyatlarini to'la tushinib yetmaganligi bois, ularning huquqiy savodxon hisoblamaydi. Bizda bunga yechim sifatida esa ayollar huquqiy madaniyatini shakllantirishga to'siq bo'luvchi turli salbiy odatlar, shuningdek ayollar reprodaktiv vazifalarni bajarganligi uchun, ularning huquqiy madaniyatini takomillashtirish oiladagi mavqeiga, ayollar huquqining tan olinishiga, oilaviy munosabatlar madaniyatining darajasiga, bilmi, kasb mahoratiga, iqtisodiy mustaqilligiga bog'liqdir. Hususan O'zbekiston respublikasi mustaqillika erishgandan boshlab, siyosatining bosh yo'nalishi inson, uning manfaatini himoya qilishga bag'ishladi, shu maqsadda mamlakatimizda turli huquqiy inistitutlar tashkiletildi. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari buzulganligi to'g'risida malumot to'plash va huquqiy kamsitilgan insonlarga yordam berish uchun O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili – Ombudsman lavozimi joriy etildi. Shunday qilib ayollar va erkaklar teng huquqligi doimo xurfikirlik insonlar diqqat markazida bo'lib kelgan.

O'z navbatida, gender tengligini ta'minlash bo'yicha muammolar ham yetarlicha. Xotin-qizlarning muammolarini o'rganish, ishsiz xotin-qizlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga o'qitish, ish bilan ta'minlash ishlari tizimli yo'lga qo'yilmagani, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish, ularni ehtiyojmandlik holatidan chiqarishga qaratilgan ishlar samarali tashkil etilmagani, xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ular tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga sabab bo'lgan omillar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga hamda huquqiy oqibatlarini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlar ko'lami yetarli emasligi, hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda voyaga yetayotgan qizlarning iqtidorlarini o'z vaqtida aniqlash, ularni ro'yobga chiqarishga

ko'maklashish tizimi joriy etilmagani kabilar shular jumlasidandir. "Gender tenglik" tushunchasi turli tarkibiy qisimlardan tashkil topgan bo'lib, turli mualliflar tomonidan xar hil izohlanadi. Demak mavzu doirasidan tushinishimiz mumkinki gender tenglik – bu erkak va ayollarning teng huquqligi, jamiyatda teng ijtimoiy munosabatga kirishishdir. Gender tengligi tushunchasini jamiyatda, o'quvchi yoshlar va kattalarga to'g'ri tushintirishda biz sinf darsliklariga gender tenglik tushunchasini kiritishimiz, ayollar va erkaklarga, shuningdek jamiyatda zo'ravonlikdan qiynalgan ayyollarga gender tenglik tushunchasi va uning mazmun – mohiyatini to'laqonli tushuntirish zarurdir. Turli loyihalar, dasturlar, rivojlanishning asosiy maqsadi ham bugungi kunda gender tenglik tushunchasini to'g'ri anglashdir. Shu orqali biz jamiyatimizdagi zo'ravonlik, ayollar huquqining buzilishi va boshqa muammolarga yechim topamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1. "Xotin qizlarning huquqlari kamsitilishining barcha shakillariga barham berish" to'g'risidagi konvensiya T: BMT ning O'zbekistondagi vakolatxonasi 1998. 1-2 betlar.
2. Inomova S.T "ezozli ayol iqboli" T: 2005 8- bet.
3. G.O'razaliev "Gender va ayollar huquqiy madaniyati" T: 2009 12-16 betlar.